XALQ DEPUTATLARI O‘RTA CHIRCHIQ TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 14 - mart VI-34-2-10-143-K/22 O‘rtachirchiq tuman hokimligi

Xalq deputatlari O’rta Chirchiq tuman Kengashining 2021 yil 30 dekabrdagi VI-XXXII-I-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 412-moddasiga asosan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida ko‘chmas mulk bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarining 1 kv.metri uchun mutloq miqdorda belgilangan minimal qiymatidan past bo‘lishi mumkin emasligi belgilangan.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq joylarda keskin oshib ketishini oldini olish maqsadida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari belgilangan minimal qiymatga shahar (tuman)larning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, 0.5 gacha kamaytiruvchi koeffitsiyent kiritishi mumkinligi nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 429 va 437-moddalarida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer solig‘ining aniq miqdorlarini belgilash nazarda tutilgan.

Shunga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida *(yuridik va jismoniy shaxslarning)* qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilashi ko‘zda tutilgan.

O‘z navbatida, tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlariga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan belgilangan yer solig‘i stavkalariga *(yuridik va jismoniy shaxslarning)* qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida kiritish huquqiga ega.

O‘tkan bir oy davomida viloyat hokimligi mutasaddilari tomonidan o‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan qabul qilingan qarorlarga asosan hududlar uchun belgilangan soliq stavkalari o‘tgan yilga nisbatan keskin oshib ketayotkanligini ko‘rish mumkin va buni oldini olish bo‘yicha tegishli takliflar taqdim qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 24 yanvardagi 06/04-02-02-32/203-sonli (XDFU) xatiga muvofiq, Xalq deputatlari O’rta Chirchiq tuman Kengashining 2021 yil 30 dekabrdagi VI-XXXII-I-son “O’rta Chirchiq tumanning 2022 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-XXXII-I-son qaroriga tegishli o‘zgartirishlar kiritish maqsadida, xalq deputatlari O’rta Chirchiq tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2022 yil 8 yanvardagi VI-44-4-10-0-K/22-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi 2022 yil 7 fevraldagi VI-46-22-10-0-K/22-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2 Xalq deputatlari shahar Kengashining 2021 yil 30 dekabrdagi VI-XXXII-I-son "O'rta Chirchiq tumanning 2022 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-XXXII-I -sonli qaroriga ilovaga muvofiq tegishli o'zgartirishlar kiritilsin.

3. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O. Nurmatov**

Xalq deputatlari O‘rtachirchiq tuman
Kengashining
2022 yil 14 martdagi
VI-34-2-10-143-K/22-son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha tuman kesimida yer solig'i stavkalari uchun 2022 yilda belgilangan koeffisentlar

T/r	Tuman nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari, 1 ga uchun (ming so'mda)		Jismoniy shaxslar bo'yich, 1 кv.м uchun (so'mda)	
		Koeffisentlar (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig'I stavkasi 2022 yil uchun	Koeffisentlar (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig'I stavkasi 2022 yil uchun
O'rta Chirchiq tumani		**1.0**	**29,532.0**	**1.0**	**270.0**
1	Yangilik	1.0	29,532.0	1.0	270.0
2	Jangaboy	1.0	29,532.0	1.0	270.0
3	Galabotir	1.0	29,532.0	1.0	270.0
4	Guliston	1.0	29,532.0	1.0	270.0
5	Turkiston	1.0	29,532.0	1.0	270.0
6	Beshboy	1.0	29,532.0	1.0	270.0
7	Yangiobod	1.0	29,532.0	0.8	216.0
8	Boyovul	1.0	29,532.0	0.8	216.0
9	Qorasuv	1.1	32,485.2	1.1	297.0
10	Rovotak	1.1	32,485.2	1.1	297.0
11	Fayzabod	1.1	32,485.2	1.1	297.0
12	Do'stlik	1.1	32,485.2	1.1	297.0
13	Sada	1.1	32,485.2	1.1	297.0
14	Tinchlik	1.1	32,485.2	1.1	297.0
15	Kim Pen Xva	1.1	32,485.2	1.1	297.0
16	Yo'ng'ichqoli	1.1	32,485.2	1.0	270.0
17	Gulobod	1.1	32,485.2	1.0	270.0
18	Yangi turmush	1.1	32,485.2	1.0	270.0
19	Faravon	1.1	32,485.2	1.1	297.0
20	Saydovulbaxt	1.0	29,532.0	1.0	270.0
21	Mingtepa	1.0	29,532.0	0.9	243.0
22	Burgalik	1.0	29,532.0	0.9	243.0
23	Qaytmas	1.0	29,532.0	1.0	270.0
24	Nomdanak	1.0	29,532.0	0.9	243.0
25	Qoraqo'yli	1.0	29,532.0	0.9	243.0
26	Mayramko'l	1.0	29,532.0	1.0	270.0

27	Chuqurovul	1.0	29,532.0	0.9	243.0
28	O'rtabo'z	1.0	29,532.0	0.9	243.0
29	O'rtasaroy	1.0	29,532.0	1.0	270.0
30	Ko'kmo'yin	1.0	29,532.0	1.0	270.0
31	Toshloq	1.0	29,532.0	1.0	270.0
32	A.Yo'lbarisov	1.0	29,532.0	1.0	270.0
33	Yuqoriovul	1.0	29,532.0	1.0	270.0
34	O'rta Ovul	1.0	29,532.0	1.0	270.0
35	Kuchlik	1.0	29,532.0	1.0	270.0
36	Darxon	1.0	29,532.0	1.0	270.0
37	Yoriq	1.0	29,532.0	1.0	270.0
38	Qunduzak	1.0	29,532.0	1.0	270.0
39	Usmonota	1.0	29,532.0	1.0	270.0
40	Changtepa	1.0	29,532.0	1.0	270.0
41	Chegara	1.0	29,532.0	1.0	270.0
42	Qo'shdaryo	1.0	29,532.0	1.0	270.0
43	Sholikor	1.1	32,485.2	1.1	297.0
44	Mustaqillik	1.1	32,485.2	1.1	297.0
45	Boyqo'rg'on	1.1	32,485.2	1.1	297.0
46	Oq ota	1.1	32,485.2	1.1	297.0
47	Mash'al	1.1	32,485.2	1.1	297.0
48	Olti o'g'il	1.0	29,532.0	1.0	270.0
49	Adolat	1.0	29,532.0	1.0	270.0
50	Obod	1.0	29,532.0	1.0	270.0
51	Xalqobod	1.1	32,485.2	1.0	270.0
52	Aranshi	1.0	29,532.0	0.9	243.0
53	Yangiyo'l	1.0	29,532.0	0.9	243.0
54	Taraqqiyot	1.1	32,485.2	1.0	270.0
55	Uyg'ur	1.1	32,485.2	1.0	270.0
56	Bunyodkor	1.2	35,438.4	1.3	351.0
57	O'choqli	1.3	38,391.6	1.3	351.0

Xalq deputatlari O‘rtachirchiq tuman
Kengashining
2022 yil 14 martdagi
VI-34-2-10-143-K/22-son qaroriga
2-ilova

“Yuridik shaxslar bo’yicha mol-mulk soliqlari uchun qo’llaniladigan mutloq miqdorlari”

T/r	**Tuman va shaharlar nomi**	**Koeffitsiyent (mutloq miqdor)**	**Belgilangan qiymat (so’m)**
1	O’rta Chirchiq tumani	0,80	800 000,0